

ABDURAUФ FITRAT - BIRINCHI O'ZBEK PROFESSORI

Durdona Doniyorova

O'zMu , Tarix fakulteti , Tarix yo'nalishi , I bosqich talabasi
“Madaniyatli mamlakatlarda tahsilga sazovor
ilmlar bisyor va zamon talabiga qarab yana
ko'payadi , zero bashar taraqqiyotining onasi
ilm va fandır “Abdurauf Fitrat.

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr oxiri XX asr boshida Turkistonda faoliyat olib borgan , O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri , zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan hisoblangan Abdurauf Fitratning ilm-fan yo'lida qo'shgan hissasi ochib berilgan . Shuningdek , Abdurauf Fitratning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ham yoritilgan . Shu bilan birga Abdurauf Fitratning birinchi o'zbek professori ekanligi asoslab berilgan .*

Kalit so'zlar : *“Abdurra'uf Fitrat in Istanbul ” , xronologik tahlil , “Tong” jurnali , xalq o'qituvchisi , “Yosh buxoroliklar” , Turkiston ma'rifat dunyosi .*

АБДУРАУФ ФИТРАТ - ПЕРВЫЙ УЗБЕКСКИЙ ПРОФЕССОР

Аннотация. *В статье раскрывается научный вклад Абдурауфа Фитрата , работавшего в Туркестане в конце XIX – начале XX века , одного из известных представителей среднеазиатского модернизма, одного из основоположников современной узбекский язык и литература. Также подчеркивается роль Абдурауфа Фитрата в воспитании молодежи. При этом Абдурауф Фитрат является первым узбекским профессором.*

Ключевые слова : *“Абдурауф Фитрат в Стамбуле” , хронологический анализ , журнал “Рассвет” , общественный учитель, “Малодые Бухарцы”, Туркестан – мир просвещения .*

ABDURAUФ FITRAT IS THE FIRST UZBEK PROFESSOR

Annotation. *The article reveals the scientific contribution of Abdurauf Fitrat , who worked in Turkestan at the end of the 19 th and the beginning of the 20 th century , one of the famous representatives of Central Asian modernism , and one of the founders of the modern Uzbek language and literature . Abdurauf Fitrat 's role in youth*

education is also highlighted . At the same time , Abdurauf Fitrat is the first Uzbek professor .

Key words : "Abdurra'uf Fitrat in Istanbul " , chronological analysis , " Dawn " magazine , public teacher , " Young Bukharans " , Turkestan is the world of enlightenment .

Fitratning serqirra ijodiy va ilmiy faoliyati o'ndan ortiq tarmoqlarni o'z tarkibiga olgan. Fitratning fikricha , inson taraqqiyotga qobilligi bilan ustun bo'lar ekan , uning ma'naviy takomili , avvalo, mana shu takomilning ibtidosi bo'lgan ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liqdir . Sadriddin Ayniy Abdurauf Fitrat haqida shunday fikr bildirgan :

-"Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri – Abdurauf Fitrat edi . Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan hisoblanar edi " .

Abdurauf Fitrat ulkan tarixchi va san'atshunos olim sifatida ilm tarixidan o'rin olgan . Qomusiy olim qaysi ilm sohasiga qo'l urgan bo'lmasin , u o'sha sohada fanning o'z davri uchun yetuk bilimdoni ekanini ko'rsata olgan . Abdurauf Fitrat hayot binosini qurishda va uning taraqqiyotida avlod tarbiyasining rolini ta'kidlab o'tadi va uch narsa : tansihatlik , sog'lom fikr va yaxshi axloq muhimligini ham ko'rsatib beradi. Abdurauf Fitrat - birinchi o'zbek professori hisoblanadi . U 1926-yili ana shu ilmiy unvonga ega bo'lgan .

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning ilm-fan yo'lidagi xizmatlari bayon etilgan manbalardan biri Fitratning hayot yo'li , ilmiy-adabiy merosi yoritilgan Hamidulla Boltaboyevning "Abdurauf Fitrat " kitobi , shuningdek , Nusratillo Naimov qalamiga mansub "Buxoro jadidlari " kitobida Abdurauf Fitrat davridagi xalq ta'limi , xorij bilan iqtisodiy va ma'rifiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi . Zaynabiddin Abdirashidovning " Abdurra'uf Fitrat in Istanbul " kitobi ham Fitrat haqida ma'lumot beruvchi qo'llanma hisoblanadi . Mana shu qo'llanmada aks ettirilishicha , Edvard Olvort shunday fikr bildirgan : "yozuvchining muhim asarlari uning dunyoqarashini ham , intellektual muhitini ham aks ettiradi " . Abdurauf Fitratning birinchi o'zbek professorligi "O'zbekiston Milliy ensiklopediya"sida alohida ta'kidlab o'tilgan.

Fitrat haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, professor Zaynabiddin Abdirashidovning "Abdurauf Fitrat in Istanbul: Quest for

Freedom” monografiyasi mavjud. Monografiyada Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakili Abdurauf Fitratning ilk nashrlari asosida inqilobgacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy qarashlari, Istanbuldagi ta'limi va publisistik faoliyati tadqiq qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolani yozishda siyosiy tahlil, tizimli yondashuv, xronologik tahlil kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Abdurauf Fitratning ilmiy faoliyati faqatgina O'zbekistonda emas, balki xorijiy davlatlarda ham yoritilgandir. Fitrat Buxoroda jadidchilik harakatiga boshchilik qilgan. Fitrat Turkiyada o'qib yurgan paytlaridanoq ilmiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydi. U Istanbuldan yo'llagan maqolalarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi. Fitrat “Tong jurnali” tashkil etilishiga bosh bo'lgan va yosh avlodni millatparvarlik yo'lida tarbiyalashda uni o'rni katta bo'lgan. Fitrat asosan 1923-1937- yillarda ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadi. Javoharlar Neruning e'tirof etishiga ko'ra, Fitratning asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan. Tarixshunoslikka oid fors tilida maqola va risolalar ham yozadi. B.S.Sergeev bilan birgalikda B.L.Vyatkin arxivida saqlangan hujjatlarni o'rganib, rus tilida “Казийские документы XVI века” (1937) kitobini nashr etdi. Abdurauf Fitratning ilm – fan yo'lidagi o'rni benazir va beqiyosdir. Fitrat ko'p sohalarda ijod etgan. Masalan, u tarixshunos, dramaturg, sharqshunos va qomusiy olim, shoir, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo'lgan. Abdurauf Fitrat haqida Begali Qosimov shunday fikr bildirgan:

-“Fitratning “Abulfayzxon” asari – adabiyotimizda tarixiy mavzudagi birinchi drama. Unda tasvir etilgan voqealar bilan Fitrat zamonasi o'rtasida ma'lum yaqinlik bor”. Fitratning hayot yo'li haqida, ya'ni 1909-yilgacha

bo'lib o'tgan davri haqida bizgacha ko'p ma'lumot yetib kelmagan. Keyinchalik tadqiqotchilar Fitratning hayotini o'rganib chiqib, aniqlik kiritishadi. U 1886-yilda savdogar oilasida tug'iladi. U buyuk qomusiy bilim sohibi edi. Filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov shunday fikr bildirgan:

- “Fitratning yurt qayg'usi bilan to'yingan she'riy va nasriy asarlari, mustamlakachilikka asoslangan mustabid davlat tuzumini fosh etuvchi dramalari uning erk va hurriyat uchun, mustaqillik uchun mardona kurashgan adib bo'lganini to'la tasdiqlaydi”.

Fitrat 1926-yilda birinchi o'zbek professori degan ulug'vor nomga sazovor bo'lgan. Fitrat oshkoralikni ulug'lagan. Professor – xalq o'qituvchisi. Bu so'z lotinchada “ommaviy o'qituvchi, xalq o'qituvchisi”

degan ma'noni anglatadi. Fitratni ilm –fan yo'lida qilgan xizmatlari beqiyos. Uni haqiqatdan ham birinchi o'zbek professori ilmiy unvonini olishi tahsinga sazovordir. Chunki uning ilm- fan yo'lidagi qilgan xizmati , yozgan asarlari beqiyosdir .Fitrat rostgo'ylikni ulug'lagan. Asarlarida vatanparvarlik ,erksevarlik , mardlik , millatparvarlik , xislatlari aks ettirilgan . Fitratni shunday fikri mavjud :

-“Himmat saboti bo'lmagan xalqning haqqi hayoti yo'qdir “ .

Fitrat xalqni ilmiy jihatdan shakllanishida asosiy rol o'ynagan . Ilm – fan yo'lida bor zehni bilan mehnat qilgan va bizga katta meros qoldirgan . Fitratning faoliyatining asosiy negizini – ozodlik g'oyasi bo'lgan erkinlik tashkil etadi . Fitrat yigitlik vaqtida islomning besh ruknidan biri bo'lgan haj amalini ado etadi . U haj safariga biror kishining hamrohligisiz chiqqan. Abdurauf Fitrat XX asr boshida Markaziy Osiyoda ziyolilarning peshqadami bo'lgan . Fitratning ilm-fan sohasidagi qo'shgan xizmati haqida gapirganda u ta'lim olgan ilmgohlarni aytib o'tish joiz .Fitrat boshlang'ich eski maktabni tugatgandan so'ng , Buxorodagi Miri Arab madrasasida davom ettirgan . Ne'matulloh Muhtaram qayd etishicha , Fitrat Buxoro adabiy davralarida yetarli darajada mashhur bo'lgan . Abdurauf Fitrat va uning zamondoshlari doimo millat haqida qayg'urishi , xalq uchun kurashlari , ularning ilgari surgan g'oya va qarashlari Turon osmonida yulduz misoli yonardi. Lekin xalqqa o'tkazilgan jabr natijasida bu yulduzni hech kim eslamadi .Lekin bu yulduz hamon porlardi . Fitrat umrining so'nggigacha el-yurt dardi bilan yashadi . El-yurtni yuksaltirishning asosiy negizi bu ilm-fanni rivojlantirdi . Uning bizgacha yetib kelgan ilmiy merosi katta ozuqa berdi . Bu fikrlardan kelib chiqib, aytish joizki Abdurauf Fitrat - birinchi o'zbek professori ilmiy unvoniga sharaflidir .

“ Fitratning deyarli barcha ijodi va ijodining asosiy yo'nalishi ayni Turkiyada o'qib yurgan yillarida boshlanganligini ta'kidlaydi “ deydi professor Zaynabiddin Abdirashidov . Fitrat o'zbek adabiyoti tarixini o'rganar ekan , eng qadimgi adabiyot yodgorliklarini , o'zining zamondoshlarining ijodini o'rganib chiqib , ilmiy sohaga nisbatan aholi o'rtasida qiziqish uyg'otdi . Fitratning tanqidiy maqolalari soni jihatidan kam bo'lsada , ularda xolislik va tahlil jihatlari ustunlik qilgan . Fitrat yurtga ozodlik istagan olim va siyosatchidir . Abdurauf Fitrat shunday fikr bildirgan :

-“ Biz Turkiston ziyolilari zamonamizning milliy-ozodlik so'zlaridan dunyo alohida xalqlardan iborat , ustunlik uchun doimiy kurash olib boruvchi pozitsiyasini qat'iy anglab oldik. Shunga ko'ra ,xalqimiz hayot

uchun kurashda muvaffaqiyat qozonish uchun , birinchidan , o'z-o'zini anglashi , ikkinchidan , taraqqiyot va o'zini himoya qilishga o'zini tashkil qilishi kerak. Ana shu mantiq biz , Turkiston ziyolilari -modernistlar (jadidlar)ni o'zlik masalasini yangicha shakllantirishga olib keldi . Fitrat “Yosh Buxoroliklar “ harakatida faol ishtirok etadi . Shuningdek , “Chig'atoy gurungi “ nomli ijtimoiy-adabiy tashkilotida faol ishtirok etgan . Abdurauf Fitrat she'riyati haqida so'z ketganda shuni aytish kerakki- shoir ilk she'ridan boshlab Turk dunyosini , Turkiston birligi , istiqlol g'oyasini ilgari surdi , u turk dunyosiga millatparvar va shoir sifatida tanilgan edi . Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega . Yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratgan Abdurauf Fitratning fikricha , farzandni to'laqonli kamol toptirib o'stirish uchun unga jismoniy , aqliy va ma'naviy tarbiyadan iborat ko'p tarkibli tarbiya berish muhimdir . Tarbiyaning har bir qismini nomlagan Fitrat mehnatsevarlik va bilim olish tarbiyasiga alohida e'tibor bilan yondashadi .

- Turkistonni -“Ey ulug' Turon , arslonlar o'lkasi “,- deb ataydi Fitrat . U badiiy va ilmiy ijod bilan mashg'ul bo'ldi .

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki , Abdurauf Fitrat ilm-fan bilan ma'naviy dunyoni shakllantirdi. Yoshlarda milliy ongini yuksaltirdi . Uning fikricha , insonning ma'naviy takomili ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq . Fitratning ilmiy faoliyati xorijiy davlatlarda ham tadqiq qilingan. Uning ilm-fan yo'lidagi xizmati benazir va beqiyosdir . Fitrat umrining so'nggi daqiqasigacha el-yurt dardi bilan yashagan . U yurtga ozodlik istagan olim va siyosatshunosdir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boltaboyev Hamidulla . Abdurauf Fitrat . –Toshkent : “Yoshlar nashriyot uyi“, 2022-yil .-144b
2. Узбекистон Миллий энциклопедияси. 2000-2005-йил
3. Zaynabiddin Abdirashidov . “Abdurra'uf Fitrat in Istanbul “ . 2023-yil. Published by walter de Gruyter GmbH ,Berlin
4. Абдурауф Фитрат. Нажот йули. –Тошкент: “Ма'навият”. 2022-йил. Б :92
- 5 Абдурауф Фитрат. Оила йоки бошқариш тартиблари. Таржима ва изоҳли муаллифи: Ш. Воҳидов. 2-нашр. –Тошкент.” Ма'навият” 2000-йил. Б: 112.